



THE IMPORTANT IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL EDUCATION CLUSTER IN THE DEVELOPMENT OF CONTINUOUS EDUCATION

Mirjalilova Madina Jamshid qizi¹

¹UzSWLU, teacher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4974460>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2021

Accepted: 10th June 2021

Online: 15th June 2021

KEY WORDS

Pedagogical cluster, continuous education, development, educational systems, a system, theory and practice

ABSTRACT

Special attention in the article is paid for enlightenment of the place, necessity and functions of educational-academic-innovative cluster which was designed in order to develop continuous pedagogical education. Pedagogical cluster has been implemented in many countries besides ours, and its main aims are to advance educational system of our Republic from larger scope and to design pedagogical techniques that could be useful in the bringing up qualified professionals in each sphere of life and implement these techniques into each educational place.

PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERINING UZLUKSIZ TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDAGI DOLZARB AHAMIYATI

Mirjalilova Madina Jamshid qizi¹

¹O'zDJTU, o'qituvchi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-iyun 2021

Ma'qullandi: 10-iyun 2021

Chop etildi: 15-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Pedagogik klaster, uzluksiz ta'lim, rivojlanish, o'quv yurtlari, tizim, nazariya va amaliyot.

ANNOTATSIYA

Tezisdagi asosiy e'tibor bugungi kun ta'lim tizimida uzluksiz pedagogik ta'limni rivojlantirish maqsadida yaratilgan o'quv-ilmiiy-innovatsion klasterning o'рни, ahamiyati va vazifalarini yoritib berishga qaratilgan. Pedagogik ta'lim klasteri juda ko'p davlatlarda, shu qatorda bizning respublikamizda ham tashkil etilgan bo'lib, uni yaratishdan maqsad keng ma'noda mamlakatimizda umumiy barcha sohalarga tegishli bo'lgan ta'limni rivojlantirish bo'lsa, tor doirada har bir sohada malakali kadrlar tarbiyalashda as qotadigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga bir maromda barcha uchun teng miqyosda tatbiq etish tushuniladi.

Bugungi kunda ko'p davlatlarda rivojlanish uchun ikki tushunchaga asosiy e'tibor qaratilmoqda, ulardan biri globalizatsiya bo'lsa, ikkinchisi mintaqalashtirish

(регионализация) hisoblanadi. Bu ikki tushuncha jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etganligi sababli ularni talim jarayoniga



ham tatbiq etilgan [1]. Globallashuv deganda biz dunyo standardlariga mos keluvchi ta'lim texnologiyalari va vositalarni respublikamizdagi bilim yurtlariga olib kirish va keng foydalanishni nazarda tutmoqdamiz. Ammo shuni ta'kidlash joizki bu kabi ishlarni barcha ta'limidagohlarda bajara olish mushkul, shu sababdan ta'lim sohasini rivojlantirish va boshqa davlatlarning ta'lim sohasi bilan raqobatbardoshlikni shakllantirish maqsadida mintaqalashtirish usulini ham qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ta'lim sohasida mintaqalashtirish jarayoni deganda biron bir davlatning ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan barcha innovatsion texnologiyalarni bir maromda ta'lim sohasiga tegishli bo'lgan barcha obyektlarga teng taqsimlash tushuniladi. Bu usuldan foydalanishda esa pedagogic ta'lim klasterini yaratish muhim ahamiyatga ega.

"Klaster" atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib, uning faol ishlatilishi o'tgan asrning 90-yillarida rus iqtisodiy terminologiyasida boshlangan va bu ommalashuv Maykl Porterning (Garvard Business School) asarlari rus tiliga tarjima qilinishi bilan bogliq deb hisoblanadi. Maykl Porter klasterlar va klasterlarni rivojlantirish nazariyasining asoschisi va ommalashtiruvchisi deb tan olingan [2]. Klaster usulidan keng miqyosda asosan iqtisodiyotdagina foydalanib qolmay, ba'liki ta'lim sohasida ham ko'p foydalaniladi. Buning natijasida esa uzluksiz pedagogik ta'limni rivojlantirishga qartilgan o'quv-ilmii-innovatsion klasterni yaratishga bo'lgan ehtiyoj kelib chiqdi.

O'quv-ilmii-innovatsion klaster bu turli xildagi va bosqichdagi ta'lim muassasalarining o'zaro tizimli birlashmasi bo'lib, unda ishtirok etuvchi

barcha ta'lim obyektlari yangi innovatsion g'oyalarishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishni maqsad qilib oladilar. Bunda har bir g'oyani takomillahstirish va tajribda sinab ko'rish klaster ishtirokchilari tomonidan birgalikda joriy qilinadi, yutuqlar bo'lishiladi, kamchiliklarni esa bartaraf etish uchun o'zaro aloqadorlik asosida harakatlar olib boriladi. Klaster tizimi har biri alohida faoliyat olib boradigan subyektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda har bir subekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish yuritadi. Bu yerda umumiy maqsad qilib har bir muaasasada ta'lim tizimini takomillashtirish va yuqori malakali pedagoglarni yaratishni misol qilsak bo'ladi. Klaster tizimi subektlari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma'naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta'siri hamda ahamiyatini kengaytiradi. Yaratilgan innovatsion tizimni vazifalaridan biri viloyatdagi ta'lim muassasalari uchun zamonaviy bilim berish va malakaga ega pedagog kadrlarga ko'maklashishdir.

Bunday tizimni bizdan oldinroq g'arb mamlaktalarida, misol tariqasida Belorusiya davlatida yaratilgan va hozirda katta tajribaga ega maktab hosil bo'lgan. Bunday maktablardan biri deb Minsk shahridagi o'quv-ilmii-innovatsion ta'lim klasterini rivojlantirish laboratoriyasini misol qilsak bo'ladi. Bizning diqqatimizni tortgan hususiyat shu bo'diki, ularning faoliyat turi 4 ga bo'linar ekan [3]. Birinchi yo'nalish "eksperimental-innovatsion" deb nomlanib, bu yo'nalishda mutaxassislik va nomutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlashdakerak bo'ladigan yangicha metodiklarani ishlab chiqish va alarning nazariy bazasini yaratish bilan



shug'ullanishadi. Ikkinchi yo'nalish "ilmiy-metodik" deb nom olgan va unda asosiy e'tibor pedagoglarga va ular duch kelayotgan muammolarga yechim topishga qaratilgan. Bunda ularni qo'llash maqsadida ilmiy seminarlar, ma'ruzalar, master-klasslar, konsultatsiyalar muntazam ravishda berib boriladi, toki yangi usul va vositalardan foydalanish pedagoglarga ortiqcha qiyinchilik tug'dirmasin. Uchinchi faoliyat turi "Ilmiy-izlanuvchanlik" bo'lib, bu yerda asosan nazariy berilgan tadqiqotlarni amaliyotga tatbiq etgandan so'ng unga amal qiluvchi tashkilotlarni monitoring qilish va natijalarni tadqiq qilish tushuniladi. Oxirgi yo'nalish nomi "axborot-analitik" bo'lib, uning asosiy vazifalariga eng oldi hisoblangan pedagogik tajribalar haqida ma'lumotni yig'ish, tahlil qilish va tarqatish, samarali deb hisoblangan metodikalarni ommalashtirish, ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan vositalarni yaratish va tarqatish kiradi.

Shu va shu kabi faoliyat turlarini bajarish maqsadida bizning yurtimizda ham prezidentimiz tashabbuslari bilan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti tashkil qilingan edi. Qaror bilan institutga viloyatdagi maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining tarbiyachilar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ayniqsa, aniq fanlar va chet tillari bo'yicha o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylaridagi ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib bugungi kunda institut o'zining asosiy strategik yo'nalishlari va rivojlanish

konsepsiyasini ishlab chiqdi [4]. Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida ta'lim mazmuni va sifatini oshirish, raqobatbardosh, yuqori bilim va ko'nikmalarga ega oliy ma'lumotli pedagoglar tayyorlashda samarador bo'lgan pedagogik ta'lim innovasion klasterlarini joriy qilish, zamonaviy axborot-kommunikasiya va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan, o'z kasbiga sadoqatli yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash kabi maqsadlar asosida amaliy ishlar olib borilmoqda. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tajriba tariqasida viloyat umumta'lim maktablari Informatika o'qituvchilari tanlab olindi. Institut masofaviy ta'lim tizimi ichida "Informatika va axborot texnologiyalari hududiy klasteri" plptformasi yaratildi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchi va o'quvchilari uchun on-layn tarzda alohida o'quv kurslari, olimpiada va tanlovlar tashkil etildi. Shuningdek, platformada sohaga doir elektron kutubxona va axborotlar bazasi tashkil etildi.

Chirchiq davlat pedagogika instituti ham uzluksiz pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish uchun oldiga bir necha maqsadlarni qo'ygan, ularni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarib kelmoqda:

- Markazlardan uzoq hududlardata'limni rivojlantirish uchun zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega pedagoglarni tayyorlash;
- Innovatsion pedagogic texnologiyalar yaratish va tatbiq qilish;
- Pedagogika fani bo'yicha ilmiy faoliyatni yo'lga qo'yish va nazariy bilimni oshirish;



- Viloyatdagi o'qituvchilarni zamon talabiga javob beradigan ta'lim standartlaridanqolib ketmasliklari uchun Xalqta'limi vazirligi bilan birgalikda o'quv kurslari tashkil qilish va h.k.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, klaster metodi jamiyatning turli sohalarini rivojlantirishda keng qo'llanib kelinayotgan uslublardan biri bo'lib, uning

ahamiyati uzluksiz pedagogik ta'limni takomillashtirishda o'zgacha. Pedagogik ta'lim klasteri mamlakatimizda ta'lim sohasidagi bo'shliqlarga ega bo'lgan hududlardat ta'lim sifatini oshirish va shu sifatni saqlab qolishda va uni yanada ko'tarishda yordam beradigan pedagoglarni yaratishda asosiy vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Концепция развития национальной системы непрерывного педагогического образования в Республике Беларусь : проект / А.И. Жук [и др.]. – Минск : БГПУ, 2014. – 24 с.
2. Смирнов, А.В. Образовательные кластеры и инновационное обучение в вузе : монография / А.В. Смирнов. – Казань : РИЦ «Школа», 2010. – 102 с.
3. <http://tvcluster.uz/>
4. <https://xs.uz/uz/post/pedagogik-talim-innovatsion-klasteri-ehdiyozh-zarurat-natizha>